

JINOYATCHILIK, QONUNBUZARLIK XULQI VA MOTIVATSIYA

Jo'rayeva Oltinoy Mehriddin qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

PP-1.21-guruh 4-bosqich talabasi

E-mail: jurayevaoltinoy0405@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada jinoyatchilikning ijtimoiy sabablari va ular bilan bog'liq bo'lgan qonunbuzarlik xulqiga e'tibor qaratadi. Ijtimoiy muhit, iqtisodiy tengsizlik, oilaviy tarbiya va ta'limning yetishmovchiligi jinoyatchilikga olib keluvchi asosiy omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Jamiyatdagi adolatsizlik, tengsizlik, shuningdek, ma'naviy qadriyatlarning zaiflashishi shaxsni qonunbuzarlikga undashi mumkinligi ta'kidlanadi.*

***Kalit so'zlar.** Jinoyat, jinoyatchi, jinoyat oqibatlarini, rivojlanish, qonunbuzarlik, tengsizlik, huquqbuzarlik, motivatsiya, Kodeks, ijtimoiy oqibatlar.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida "Ushbu Kodeks bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi" deyiladi. Jinoyat Kodeksi bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish deb topiladi. Jinoyat so'zining kelib chiqishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u davlatda qabul qilingan "qonunni buzgan odam" ma'nosini anglatadi. Jinoyatning yuridik ma'nodagi ta'rifi ilk bor 1789-yildagi Inson va fuqaro haq-huquqlari va erkinliklari Deklaratsiyasida berilgandi.

Jinoyatchilik, qonunbuzarlik xulqi va motivatsiya o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiy va psixologik jihatdan murakkabdir. Jinoyatchilik va qonunbuzarlik xulqi, asosan, shaxslar yoki guruhlar tomonidan belgilangan belgilangan me'yorlarni, huquqiy tartiblarni buzishni anglatadi. Bu holat ko'plab

omillar – ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, madaniy va boshqa – ta’sirida yuzaga kelishi mumkin. Jinoyatchilik, odatda, qilmishlar orqali jamiyatga zarar yetkazish, huquqbuzarlikni amalga oshirishni anglatadi. Bu, masalan, o’g’rilik, firibgarlik, zo’ravonlik, narkotiklar savdosi va boshqalarni o’z ichiga oladi. Qonunbuzarlik esa yanada kengroq tushuncha bo’lib, jamiyat tomonidan taqiqlangan yoki jazolanishi kerak bo’lgan barcha xatti-haratlarni o’z ichiga oladi. Jinoyatga motivatsiya – bu xulq-atvorning amalga oshirilishiga olib keladigan ichki yoki tashqi omillardir. Motivatsiya quyidagilarga asoslanishi mumkin:

Shaxsiy manfaatlar: Ba’zi hollarda odamlar o’z manfaatlarini (pul, kuch, mavqe) oshirish maqsadida jinoyatga qo’l urishadi.

Ijtimoiy muhit: Ijtimoiy muhit, oila, do’stlar yoki jamoa ta’siri ham jinoyatchilikka olib kelishi mumkin. Agar shaxs nohaq va noto’g’ri muhitda bo’lsa, bu uning xatti-harakatlarini shakllantiradi.

Psixologik omillar: Ba’zi odamlar shaxsiy psixologik omillar (masalan, yakkalik, stress, hissiy travmalar) tufayli jinoyatga jalb qilinishi mumkin.

Ijtimoiy adolatsizlik va diskriminatsiya: Ba’zida odamlar jamiyatdagi adolatsizlik yoki diskriminatsiyaga qarshi norozilik va qasos olish uchun jinoyatga yo’l qo’yishi mumkin.

Jinoyatchilikning oldini olishda motivatsiyaning o’rni kata. Agar shaxsning motivatsiyasini to’g’ri yo’naltirish va ijtimoiy jihatdan qo’llab-quvvatlash tizimi yaratilsa, jinoyatchilikni kamaytirish mumkin. Jamiyat o’z navbatida, jinoyatni oldini olish uchun ta’lim, psixologik yordam va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga harakat qilishi kerak.

Xulq og’ishishi oqibatlar: Jinoyatchilik va qonunbuzarlik shaxsda xulqning og’ishishi ko’pincha jinoyat va qonunbuzarliklarni amalga oshirishga olib keladi, xavfsizlikka tahdidlarga olib keladi.

Ijtimoiy aloqalar va yakkalanish: Xulqiy og’ishish shaxsni jamiyatdan chetlashish, do’stlar va oilaviy aloqalarni buzishga olib kelishi mumkin.

Ruhiy va jismoniy salomatlik: Xulqiy og'ishish natijasida ruhiy stress, depressiya, travmalar yoki jismoniy salomatlikdagi yomonlashuvlar yuzaga kelishi mumkin.

Jamiyatdagi barqarorlikka tahdid: Xulqiy og'ishish keng tarqalgan bo'lsa jamiyatda umumiy ishonch va barqarorlikni oasaytiradi, bu esa ijtimoiy muammolarni kuchaytiradi.

Jinoyatchlik va qonunbuzarlik xulqi, asosan shaxsiy va ijtimoiy motivatsiyaning murakkab o'zaro ta'sir natijasidir. Bunday xatti-harakatlarning oldini olish uchun nafaqat individual qarorlar balki ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy omillarni inobatga olish zarur.

Psixologik yordam: psixologik konsultatsiyalar terapiya va yordam dasturlari orqali shaxslarning ruhiy holatini yaxshilash, travmalarni davolash va ijtimoiy moslashuvni qo'llab quvvatlash mumkin.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash: Jamiyatda qo'llab quvvatlovchi tarmoq (masalan, ijtimoiy xizmatlar, volontyorlik, o'zaro yordam guruhleri) xulqiy og'ishishni kamaytirishga yordam beradi.

Jinoyatni boshqa bir huquqbuzarliklardan farqli belgilari bo'lib bular quyidagilar:

Jinoyatning birinchi belgisi – ijtimoiy xavflilik. Ijtimoiy xavflilik jinoyatning eng muhim belgilaridan biri hisoblanib aynan shu bilan u ma'muriy hatti-harakatlardan farqlanadi.

Jinoyatning ikkinchi belgisi – uning huquqqa xilofligidadir. Ushbu belgiga muvofiq u yoki bu qilmish, agar jinoyat qonunidan uni sodir etish taqiqlangan bo'lsa jinoiy qilmish deb topilishi mumkin. Ayni paytda jinoyat Kodeksida tegishli modda bo'lmasa, mazkur qilmish jinoyat deb topilishi mumkin emas.

Jinoyatning uchinchi belgisi – aybni mavjudliligi. Uning mohiyati shundan iboratki, ijtimoiy xavfli, jinoyat qonuni bilan taqiqlangan qilmish faqat

uni sodir etgan shaxsning aybi isbotlangandan keyin jinoyat deb hisoblanadi.”Adolat – davlatning buzilmas poydevoridir”(Pindar)

Jinoyatning to‘rtinchi belgisi – uning jazolanishidan iborat.

“Kimki illatga jazo bermasa, uning himoyachisidir” degan edi Leonardo da Vinchi. Qonun yo‘li bilan jazolandimi demak jinoyati uchun jazolangan, jazosiz qolishlik keying jinoyatlarga yo‘l ochishlikdir”. “Jazo emas jinoyat sharmandalikdir”. (I.Gerder)

Arastu aytganidek “Jinoyatga baxona bo‘lsa bas, bir jinoyat ikkinchisiga yo‘l ochadi”. Zero, Sitseron “Jazo bermaslik jinoyatga kata rag‘batdir” deb, hayotiy haqiqatni aytgan edi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, jinoyatchilik, qonunbuzarlik xulqi va uning motivatsiyasi zamonaviy jamiyatning murakkab ijtimoiy hodisalari sirasiga kiradi. Ushbu muammo nafaqat huquqiy, balki iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik jihatlarga ham ega bo‘lib, uning ildizlari jamiyatning turli sohalariga chuqur singib ketgan. Ushbu maqolada jinoyatchilikning sabablari, uni yuzaga keltiruvchi omillar va qonunbuzarlik xulqini shakllantiruvchi motivatsiyalar keng qamrovli yondashuv asosida tahlil qilindi. Jinoyatchilikni kamaytirish va qonunbuzarlikning oldini olish uchun nafaqat qonuniy choralarga e‘tibor qaratish, balki ijtimoiy va psixologik omillarni inobatga olgan holda keng ko‘lamli strategiyalar ishlab chiqish zarur. Bu yo‘nalishdagi harakatlar jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarni ta‘minlab, tich va xavfsiz muhit yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (Yangi tahrir). – T.,2023y.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.,2021y.
3. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”. – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (07.02.2017 y., PF-4947-son).
4. Alimova D. Djadidizm v sredney Azii. Puti obnavleniya, reformi, borba za nezavisinost.-T.: Uzbekistan,2000.

5. Otamuratov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik. – Toshkent: “O‘zbekiston”,2013.
6. Андерсон Б. Воображаемые сообщества. Размышления об истоках и распространении национализма. – Москва: 2001.
7. Змановская Е.В. Девиантология: (Психология отклоняющегося поведения)
8. Я.Глинский. Девиантология.Социология преступностию
9. L.Olimov va A.Nazarov “Xulqi og’ishgan bolalar psixologiyasi” o‘quv qo‘llanma.
10. 1.Айматова Д. Р. Социально-психологические характеристики в связи и эмоционального интеллекта к уровня удовлетворенности семейной жизни //E Conference Zone. – 2024. – С. 1-4.
11. 2. Айматова, Дилором Рuzimurotovna. "Социально-психологические характеристики в связи и эмоционального интеллекта к уровня удовлетворенности семейной жизни." *E Conference Zone*. 2024.
12. 3. Айматова, Д. Р. (2024, February). Социально-психологические характеристики в связи и эмоционального интеллекта к уровня удовлетворенности семейной жизни. In *E Conference Zone* (pp. 1-4).
13. 1.Ruzimurotovna A. D. Concepts Of Satisfaction With Family And Family Life //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2024. – Т. 30. – С. 28-30.
14. 2. Ruzimurotovna, Aymatova Dilorom. "Concepts Of Satisfaction With Family And Family Life." *Journal of Pedagogical Inventions and Practices* 30 (2024): 28-30.
15. 3. Ruzimurotovna, A. D. (2024). Concepts Of Satisfaction With Family And Family Life. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 30, 28-30.
16. Buribaevich M. K., Zayitovich D. M., Yuldashev S. E. PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF MEMORY IN

PRESCHOOL CHILDREN //Frontline Social Sciences and History Journal. – 2022. – Т. 2. – №. 03. – С. 21-31.

17. Buribaevich, Murotmusaev Komiljon, Dzhelyalov Marlen Zayitovich, and Sheryigit Ergashevich Yuldashev. "PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF MEMORY IN PRESCHOOL CHILDREN." *Frontline Social Sciences and History Journal* 2.03 (2022): 21-31.

18. Buribaevich, M. K., Zayitovich, D. M., & Yuldashev, S. E. (2022). PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF MEMORY IN PRESCHOOL CHILDREN. *Frontline Social Sciences and History Journal*, 2(03), 21-31.

19. Ойматова Д. Р. СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА УРОВЕНЬ УДОВЛЕТВОРЕННОСТИ БРАКОМ.

20. Ойматова, Д. Р. "СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА УРОВЕНЬ УДОВЛЕТВОРЕННОСТИ БРАКОМ." 258.

21. Ойматова, Д. Р. СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА УРОВЕНЬ УДОВЛЕТВОРЕННОСТИ БРАКОМ.

22. Айматова Д. Хотира va o'smir yoshdagi o'quvchilarda хотирани mustahkamlash metodlari //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 12/S. – С. 142-145.

23. Айматова, Дилором. "Хотира va o'smir yoshdagi o'quvchilarda хотирани mustahkamlash metodlari." *Общество и инновации* 2.12/S (2021): 142-145.

24. Ruzimurotovna A. D. RELATIONSHIP BETWEEN EMOTIONAL INTELLIGENCE AND LIFE SATISFACTION //Conferencea. – 2024. – С. 1-6.

25. Ruzimurotovna, Aimatova Dilorom. "RELATIONSHIP BETWEEN EMOTIONAL INTELLIGENCE AND LIFE SATISFACTION." *Conferencea* (2024): 1-6.